



## REPORTS

## МАҚОЛАЛАР

### TIL BIRLIKLARINING NUTQQA KO‘CHIRILISHI MASALASI BILAN BOG‘LIQ BA‘ZI MULOHAZALAR

*Turniyazov Ne‘mat Qayumovich,*  
*SamDCHTI professori*  
*Turobov Abdurayim Malikovich,*  
*SamDCHTI dotsenti*

**Kalit so‘zlar:** *til lingvistikasi, nutq lingvistikasi, kommunikativ jarayon, sinergetika, verballash jarayoni, egotsentrik.*

XIX asr tilshunosligida tilning sistema ekanligi masalasini o‘rganishga poydevor qo‘yilgan bo‘lsa, XX asr tilshunosligida mazkur masala mukammal o‘rganildi. Bunda til sistemasining o‘ziga xos voqelik ekanligi, uning nimalardan tashkil topishi va har bir til birligining xarakterli jihatlari, ayniqsa, ikki o‘lchamliligi masalasi mukammal yoritildi. Biroq til belgilarining nutqda qo‘llanishi va bu bilan bog‘liq masalalar tadqiqi ikkinchi darajali bo‘lib qoldi. Ehtimol, shunday bo‘lishi ilmiy asoslidir. Chunki sistema haqida mukammal ma‘lumotga ega bo‘lmay turib, til belgilari (birliklari)ning kommunikativ jarayonda qay tarzda qo‘llanilishi masalasini tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yish imkoniyati chegaralangan bo‘lishi tabiiydir.

Ammo shunday bo‘lishiga qaramay, XX asr tilshunosligida til bilan nutqni farqlab o‘rganish lozimligi masalasi tadqiqotlar kun tartibiga kiritilgan edi. Fikr dalilini mashhur tilshunos F.de Sossyurning “til va nutq” dixotomiyasida ilmiy asoslanganligida ko‘ramiz.

Aytish lozimki, F.de Sossyur tomonidan “til va nutq” dixotomiyasi ilmiy asoslangach, tilshunoslikda katta burilish sodir bo‘ldi. Zotan, asrlar davomida til va nutq muammolari qorishtirilib kelinar edi. Hatto hozirgi kunda ham ba‘zi tadqiqotchilar til hamda nutq hodisalarini farqlamayptilar. Bizningcha, bugungi kunda til lingvistikasi va nutq lingvistikasi alohida sohalar sifatida ilmiy dalillangan ekan, bunga to‘liq amal qilishimiz lozim.

Mazkur masala ham F.de Sossyur nomi bilan haqli ravishda bog‘lanadi. Olim Jeneva universiteti talabalariga ma‘ruza o‘qishi paytida quyidagilarni alohida ta’kidlagan edi: “Да, господа, всегужелингвистику. Только, осмелюсь вам сказать, область, которой занимается, лингвистика весьма обширна. А именно она состоит из двух частей: одна часть ближе к языку и представляет собой пассивный запас; другая же часть ближе к речи и представляет собой активную силу...”<sup>1</sup>.

Ko‘rinadiki, F.de Sossyur hali, o‘z davrida bashorat qilib tilshunoslikni ikki qismga – til lingvistikasi va nutq lingvistikasiga bo‘lib o‘rganish lozimligini aytgan edi. Albatta, tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davriga qadar til lingvistikasi muammolari mukammal o‘rganildi. Ammo nutq lingvistikasining ilmiy asoslanganligi endigina tan olindi va unga hayotga yo‘llanma berildi. Bu juda muhimdir, zotan, ayni paytda tashqi tilshunoslik muammolari ham tadqiqotlarimizga kirib keldiki, bu orqali inson omili ham eng kuchli kognitiv-pragmatik vosita sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Shu bois XXI asr tilshunosligi antroposentrik ekanligi alohida ta’kidlanmoqda.

Aslini olganda, tilshunoslikda antroposentrik yo‘nalish o‘tgan asrning 70-yillarida tadqiqotlar kun tartibiga kirib kela boshlagan edi. Buning dalili sifatida fransuz tilshunosi E.Benvenistning “Umumiy

<sup>1</sup> Соссюр Ф.де. Заметки по общей лингвистике.- М.,1990.-С.206.



tilshunoslik” asarining bir bo‘limi “Inson va til” (“Человек-языке”) deb atalganligini ko‘rsatish mumkin. E.Benvenist inson va til haqida mulohaza yuritganida quyidagilarni mutlaqo to‘g‘ri qayd etadi: “Именно в языке и благодаря языку человек конституируется как субъект, ибо только язык придаёт реальность, своюреальность, которая есть свойствабыть – понятию “Его” – моё я”<sup>2</sup>.

To‘g‘ri, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgani kabi, qariyb hozirgacha til va uning qo‘llanilishida, taraqqiyotida inson omili masalasiga jiddiy e‘tibor berilmadi. Biroq, bizningcha, buni nisbiy tushunmoq darkor. Chunki V.fon Humboldt tadqiqotlarida, qolaversa, tilning falsafiy masalalarini o‘rganishda inson omili masalasi tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yilganligi izoh talab qilmaydi. Til va tafakkur birligi masalasi esa tilshunoslarimizning har doim diqqat markazida bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda dolzarb sanalayotgan kognitiv tilshunoslik muammolari ham falsafada bilish nazariyasi nomi bilan azaldan o‘rganilib kelinmoqda. Bugungi tilshunoslikda uning lingvistik maqom olganliginigina yangilik deyish mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, kognitiv tilshunoslik o‘rganadigan barcha masalalar til unsurlarining mazmuniy jihatlarini taqozo etadi. Bundan tashqari, bunday masalalar tashqi tilshunoslikda tekshiriladigan obyektlarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, kognitiv tilshunoslik sistema, uning voqelanishi, sistema birliklarining ichki bog‘lanishi, ularning tildan nutqqa ko‘chirilishi va h.k.kabi masalalar bilan shug‘ullanmaydi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tekshiruv obyekti, bizningcha, tilning kommunikativ funksiyasi bilan uzviy bog‘lanadi. Shu bois E.A.Popovaning kognitiv tilshunoslik – bu til bilan inson omilining munosabatini o‘rganuvchi yagona soha emasligi haqidagi fikriga qo‘shilamiz. Uning bu xususda bildirgan quyidagi mulohazalari ham ibratlidir: “...antropologik

epitet tilning hozirgi paradigmasini o‘rganishda eng qulay va to‘g‘ri tushunchadir. Zotan, bu orqali nafaqat tilning kognitiv xususiyatini, balki uning funksional-kommunikativ jihatlarini tadqiq etish ham mumkin”<sup>3</sup>.

Bugungi tilshunoslikda kommunikativ jarayonning asosiy birligi sifatida matn ko‘rsatilmoqda, zero, unda tilning barcha birliklari kesishadi. Biroq matn jumalardan tashkil topadi. Albatta, keng ma‘noda tilning nutqda qo‘llanilishini matnda qayd etamiz. Ammo shuni ham aytish kerakki, tilning individual qo‘llanilishi jumalar orqali sodir bo‘ladi. Shu bois jumalani kommunikativ jarayonning asosiy va minimal birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy tilshunoslikda muloqot birligini diskurs deb atashmoqdalar. Jumla esa aksariyat hollarda ana shu narsaning o‘zini taqozo etadi.

E.Benvenist biz tildan foydalan-ganimizda muhim vosita sanaluvchi individual akt eng avval so‘zlovchini nutqiy jarayon parametri sifatida faollashtirishini ta’kidlaydi. Bunda jumla (gap) shakllanmaguncha til o‘ziga xos imkoniyat tarzida mavjud bo‘lishini, nutqiy jarayon boshlangandan keyin esa insonga tovushlar orqali faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoit yaratuvchi faol vositaga aylanishini alohida qayd etadi<sup>4</sup>. Bizningcha ham, ana shu jarayonda so‘zlovchining pragmatik faolligi boshlanadi va har bir jumla uchun zarur bo‘lgan til birliklarining tildan nutqqa ko‘chirilishi bosqichma-bosqich sodir bo‘la boshlaydi. Boshqacha aytganda, ayni paytda til birliklaridan nutqda foydalanishning induktiv usulu faollik ko‘rsatadi va bunung natijasida matn shakllanadi. Pragmatik nuqtai nazardan bu o‘rinda so‘zlovchining illokutiv rejasi amalga oshadi.

Albatta, mazkur hodisalarning barchasi kommunikativ jarayon bilan uzviy bog‘lanadi, zero, ayni paytda so‘zlovchi (inson omili) muhim vazifa bajaradi. U.L.Cheyf bunda

<sup>2</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М.,1974.-С.293.

<sup>3</sup> Попова Е.А. Человек как основополагающая величина современного языкознания// Филологические науки, 2002 №3.-С 71.

<sup>4</sup>Қаранг: Бенвенист Э. Кўрсатилган асар, 313-бет.



soʻzlovchi va tinglovchining psixologik holati ham ahamiyat kasb etishini taʼkidlaydi. Uning fikriga koʻra, tafakkur bilan bogʻliq boʻlgan semantik strukturalar inson miyasida fonologik strukturalarga aylanadi va shu orqali lingvistikaning tafakkur jarayoni bilan uzviy aloqasi vujudga keladi. Har qanday til hodisasini ham inson tafakkuri bilan hisoblashmay tadqiq etish qiyin<sup>5</sup>.

Koʻrinadiki, U.A.Cheyfning lingvistik qarashlarida asosiy eʼtibor tilni intuitiv, yaʼni xususiy bilimlarga asoslangan holda oʻrganishga qaratiladi. Biroq olimning bu qarashlari, nazarimizda, umumiy masalaning faqat bir tomonini tashkil etadi. Zotan, lingvistik tadqiqot tilni kollektiv bilish masalasi bilan aloqador aksariyat muammolar shu tilda soʻzlashuvchi ommaning bilish salohiyati bilan ham uzviylik tashkil etadi<sup>6</sup>.

Biroq U.L.Cheyfning kommunikativ jarayon qatnashchilari har doim tildan tashqari muhit bilan bogʻliq ekanligi va buning tildan nutqda foydalanishda muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi mulohazalari ibratlidir<sup>7</sup>. Chunki til birliklarining funksional faollashuvi pragmatik omillar qurshovida roʻy beradi. Bunda, ayniqsa nutq muhiti muhim rol oʻynaydi. Fikr dalilini muayyan til birligining qoʻllanilishi bir til muhitida mumkin boʻlib, ikkinchi muhitda inkor etilishida kuzatish mumkin. Bu jarayonda, albatta, kontekst katta nufuzga ega boʻladi. E.V.Paduchayevaning qayd etishiga koʻra, koʻpgina soʻzlar oʻzlaricha mustaqil maʼno anglatolmaydi. Kontekstdan tashqari, jumlada (gapda) qoʻllanilgan soʻz yakka boʻlishiga qaramay, jumlaning umumiy mazmuni mazkur soʻzlar anglatgan maʼnodan kelib chiqmasligi ham mumkin<sup>8</sup>. Masala tavsifining bunday qoʻllanilishi esa har bir soʻz (yoxud til birligi) faqat kontekstda, sintagmatik qator zanjirida

muayyan funktsiya bajarishi va muayyan maʼno anglatishidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, til birliklarining sintagmatik qatorda qoʻllanilishi jarayonida funksional qiymat kasb etishini til materiali tahliliga system-struktur nuqtai nazardan yondashilganda, yanada mukammal va aniqroq kuzatish mumkin. Boshqacha aytganda: “Nutqiy faoliyatni va u bilan bogʻliq muammolarni tadqiq etishda masala tavsifiga sistem nuqtai nazardan yondashish eng ishonchli vosita sanaladi”<sup>9</sup>. E.V.Ponomarenko bu xususda mulohaza yuritganda yana quyidagilarni toʻgʻri taʼkidlaydi: “Til oʻz birliklari bir-biri bilan uzviy munosabatda boʻlgan funksional sistemadir”<sup>10</sup>.

Til sistemasini ikki xil tushunish mumkin: 1. Metodologik tamoyil sifatida. 2. Tilning immanent (tashqi taʼsirlardan holi) xususiyati tarzida. Albatta, mazkur tushunchalar oʻzaro bogʻliq boʻlib, biri ikkinchisi mavjud boʻlishini taqozo etadi. Ammo til birliklarining funksional qiymat kasb etishini oʻrganishda ulardan ikkinchisi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy boisi shundaki, til sistemasini (ichki immanent harakterli sistema nazarda tutilmoqda) sinergetik kuchga egadir. Agar sinergetikani oʻz-oʻzini boshqarish deb tushunadigan boʻlsak, u holda til sistemasining bunday sifatga ega ekanligi izoh talab qilmaydi.

Ayni paytda biz *til sistemasini* tushunchasiga urgʻu bermoqdami, ammo bu bilan nutqning ham murakkab sistema ekanligini inkor etmoqchi emasmiz. Shubhasiz, nutq ana shu sinergetik kuch qurshovida faoliyat koʻrsatadi. Bu jarayonga inson omili ishtiroki boʻlishi muqarrardir. Lekin, shu bilan birga, nutqning ham faqat oʻzigagina tegishli jihatlari mavjudki, ularning funksional faollik olishi sinergetik omillarga tayanadi.

“Sinergetika” termini aslida yunoncha boʻlib, u oʻzaro munosabat bogʻlash

<sup>5</sup>Қаранг: Чейф У.Л. Значения и структура языка.- М., 1975.- С.47.

<sup>6</sup>Қаранг: Лабов У. О механизме языковых изменений// Новое в лингвистике. Вып.7.-М., 1975.- С.199.

<sup>7</sup>Қаранг:Чейф У.Л. Кўрсатилган асар, 47-бет.

<sup>8</sup>Қаранг: Падучаева Е.В. О семантике синтаксиса. – М., 1974.-С.12.

<sup>9</sup> Пономаренко Е.В. О развитии системного подхода в лингвистике // Филологические науки, 2004, №5.-С.24.

<sup>10</sup>Ўша мақола, 26-бет.



ma'nosini anglatadi. Mazkur terminni dastlab nemis fizigi G.Xaken iste'molga kiritgan edi. Olim ayni paytda lazer nurlarining o'z-o'zini boshqarishini tushungan. Tilshunoslikda ham bu termin shu ma'noda qo'llanilmoqda<sup>11</sup>.

Til birliklarining nutqqa ko'chirilishi jarayonida mazkur tushuncha eng faol vositaga aylanadi. Chunki nutq zanjirining bekam ko'st tashkil etilishida til birliklarining ketma-ket qo'llanilishi, birining sintaktik faollashuvi ikkinchisi bilan bog'liq bo'lishi ana shundan dalolat beradi. Zotan, "Sinergiya" tushunchasining o'zi ham kuchlarning qorishuvi degan ma'noni anglatadi<sup>12</sup>.

Darhaqiqat, til birliklarining nutqqa ko'chirilishi jarayonida fonologik birliklar morfemalar bilan, morfematik birliklar so'zlar bilan o'zaro kesishadi va bu orqali ularning funksional qiymatlari belgilanadi. Shubhasiz, mazkur jarayonda so'zlovchining (inson omilining) ham mavqei kattadir. Chunki u o'zining diskursiv faoliyatida doimiy ravishda til birliklarini tanlash bilan mashg'ul bo'ladi<sup>13</sup>. Boshqacha aytganda, inson omili vositasida muloqot shakllanar ekan, til birliklarining nafaqat nutqda qo'llanilishi, balki ularning muayyan funksional salmoq kasb etishi ham u bilan bevosita aloqadordir.

Shuni ham aytish lozimki, funksional tilshunoslikning bosh tezisi grammatikaning kommunikativ va kognitiv jarayonga bo'ysunishini taqozo etadi<sup>14</sup>. Bunung boisi shundaki, kommunikativ jarayonning qay tarzda shakllanishi insonning bilimlari darajasi bilan uzviy aloqador holda ro'y beradi. Bu esa, o'z navbatida, til birliklarining

amalda qo'llanilishini talab qiladi. Bu o'rinda, xususan, nutq shakllanishining verballashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Verballash jarayoni ham o'ziga xos jihatlariga ega bo'lib, bunda so'zlovchining (umuman insonning) tafakkuri bilan ongi va bir paytning o'zida til bilan nutq birliklari o'zaro kesishadi. S.D.Katsnelsonning qayd etishiga ko'ra, tafakkur bilan ong o'rtasidagi munosabatni nutq bilan til o'rtasidagi munosabatga qiyos qilish mumkin. Biz nutqiy jarayonda til birliklaridan bevosita ongimiz ishtirokida foydalanamiz. Inson miyasida ong bilan til nisbiy avtonom holatda bo'lgan ikki jihatni tashkil etadi. Bu jihatlar har biri o'z vositalariga va ularni faollashtirish omillariga ega bo'lib, ular tilning amalda qo'llanilishi va funksional qiymat kasb etishida o'zaro qorishadi<sup>15</sup>.

Shuni ham aytish kerakki, kommunikativ jarayonda so'zlovchining ishtirok etishi, ya'ni uning egosentrik mavqei izoh talab qilmaydi. Biroq til birliklarining amalda qo'llanilishi har doim ham so'zlovchining eksplitsit nutqi bilan emas, balki so'zlovchi ishtirokining implitsit holati bilan ham berilishi mumkin. Masalan, *Sobirni ko'rdim* va *Daryo qirg'og'i toshloq edi* jumllariga e'tibor beraylik. Ayni paytda birinchi jumlaning shakllanishida so'zlovchining egosentrik mavqei yuqori ekanligi izoh talab qilmaydi. Chunki u shaxsan o'zi Sobirni ko'rganligi haqida xabar bermoqda. Bu holat ifodasi uning faqat o'ziga tegishlidir. Ammo ikkinchi jumla so'zlovchining faoliyati qandaydir implitsit yo'nalish olgandek xabar ifodasini bermoqda. Bu o'rinda nafaqat bir kishi, balki barcha kishilar daryo qirg'og'ining toshloq ekanligini tasdiqlashlari mumkin. Masala tavsifiga funksional nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, ayni paytda berilgan gaplarning birinchisida so'zlovchining egosentrik holati kuchli ekanligini ko'ramiz.

Har qanday gapning sintaktik shakllanishi, albatta, kommunikativ jarayon talabi bilan bog'liq bo'ladi. Boshqacha

<sup>11</sup>Пономаренко Е.В.Кўрсатилган мақола, 24-бет.

<sup>12</sup>Қаранг: Хакен Г. Синергетика. –М.,1980.

<sup>13</sup>Қаранг: Ли В.С. О системных отношениях между структурно-смысловыми компонентами дискурса// Русский язык: исторические судьбы и современность. Материалы II международного конгресса исследователей русского языка. -М., 2004 (Материал интернета).

<sup>14</sup>Қаранг: Лазуткина Е.М. Дискурс как когнитивный аспект коммуникации (на матер. соматических речений) // Русский язык: исторические судьбы и современность. Материалы II международного конгресса исследователей русского языка. -М., 2004 (Материал интернета).

<sup>15</sup>Қаранг: Кацнельсон С.Д. Речемыслительные процессы // Вопросы языкознания, 1984, №4. -С.4.



aytgnanda, nafaqat gapning shakllanishi, balki gap komponentlarining funktsional faolligi darajasi ham ularning kommunikativ vazifalari orqali belgilanadi va bunda, soʻzsiz, soʻzlovchining ham ahamiyati muhim boʻladi.

Zotan, nutqiy jarayon soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi fikr almashinuvi vositasida shakllanadi.

*Turniyazov N. Some views about issues in translation of language units in speech. This article denotes to the issues of syntactical arrange of sentences as well as characteristics of peculiarity of each language unit and eventfulness of language system.*

*Турниёзов Н. Некоторые соображения по вопросу перехода языковых единиц в речь. В статье освещены вопросы синтаксического оформления предложения, а также характерная для языковой системы событийность, из чего она состоит и характерные особенности каждой языковой единицы, освещены вопросы двуразмерности.*

---

---